

«Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi»da
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy
markazi**

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi
materiallari

(2023-yil,6-dekabr)

Tezislar va maqolalar to‘plami

Buxoro-2023

To'plamda "Yangi O'zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi"da ta'lim sifatini yanada oshirish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan tezis va maqolalar kiritilgan.Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda ta'lim va tarbiyaning roli, yuksak ma'naviy xazina hisoblangan buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish hamda "O'zbekiston-2030"strategiyasida ilgari surilgan,erkin,farovon va qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish haqidagi fikrlar bayon etilgan tezis va maqolalar kiritilgan.

Yuksak bilimli,intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash,ular ongi va qalbiga vatanga muhabbat,yurt taqdiriga dahldorlik his-uyg'ularini singdirish,yosh avlodni Yangi O'zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi"dagi tub islohotlar jarayonida faol ishtirok etish masalalari tahliliga bag'ishlangan ushbu to'plam soha mutaxassislari,professor-o'qituvchilar,umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari,tadqiqotchi-izlanuvchilar ,magistr va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallarini tayyorlash bo'yicha mas'ullar:

Tahrir hay'ati raisi: A.K.Safarov, Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori.

Mas'ul muharrir: Yu.H.Haydarov, "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri ,tarix fanlari nomzodi,dotsent.

Tahrir hay'ati:

Sh.R.Astanov –"O'quv va metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

B.Ya.Axmedov -"Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,filologiya fanlari nomzodi,dotsent.

R.V.Astanov- "Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri.

U.A.Qosimov- "Pedagogika,psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini mudiri,psixologiya fanlari nomzodi,dotsent

M.S.Narzieva- "Maktabgacha,boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" mudiri

M.Q.Oripova- "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

M.I.Abdullayeva- "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: Yu.Sh.Shukrullayev- tarix fanlari nomzodi,dotsent.

B.I.Mustafoev-pedagogika fanlari nomzodi,dotsent.

To'plam BVPYaMO'MM ilmiy-metodik kengashi tomonidan foydalanish uchun tavsiya etilgan. (2023-yil 4-dekabrdagi navbatdan tashqari yig'ilishi bayonnomasi.)

Oktyabrovna S. N., Khamidovna R. I. Scientific and theoretical foundations of the development of children's creativity in the educational process of a preschool educational institution //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – T. 1. – C. 3-8.

Hamidovna R. I. et al. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani shakllantirish //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 1414-1419.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHDA TA'LIMNING YETAKCHI VOSITASI SIFATIDA

Gulzoda Baxtiyorovna Ergasheva,

Buxoro davlat universiteti,

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Ravshanova Sitorabonu Murodillo qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

Maftuna Olimova,

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallashi, chuqur ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishi haqida mushoda yuritilgan.

Kalit so'zlar: aqliy tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkiloti, aqliy malaka, ko'nikma, bilish, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantirish.

Аннотация: В данной статье приобретение знаний означает понимание сущности природных и социальных процессов, становление высококвалифицированной личностью, отвечающей высоким морально-этическим требованиям, основательное приобретение имеющихся научных и профессиональных знаний, глубоких положительных и отрицательных сторон. Это можно оценить.

Ключевые слова: интеллектуальное образование, организация дошкольного образования, умственная компетентность, умения, знания, интуиция, восприятие, память, воображение, мышление, развитие речи.

Abstract: In this article, acquiring knowledge means understanding the essence of natural and social processes, becoming a highly qualified person who meets high moral and ethical requirements, a thorough acquisition of existing scientific and professional knowledge, deep positive and negative aspects. this can be appreciated.

Key words: intellectual education, organization of preschool education, mental competence, skills, knowledge, intuition, perception, memory, imagination, thinking, speech development.

Aqliy tarbiya jarayoni bir necha vazifalarni bajarishga yordam beradi. Masalan, ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish, mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi. Shu qatorda aqliy bilim bizga bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirishga asosiy tayanch bo'ladi. Aqliy ta'lim va tarbiyaning birligi asosida esa tafakkur rivojlanadi. Uning shakllanishida esa ilmiy qarash o'ziga xos o'rin tutadi. Ilmiy qarash-biron hodisa yoki jarayonning ilmiy jihatdan asoslovchi fikr yoki g'oyadir. Ilmiy qarash aqliy ta'limni rivojlantirish uchun asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya har bir insonda turlicha bo'lgani kabi aqliy tarbiya ham hammada har xil rivojlangan bo'ladi. Ba'zi o'quvchilar uchun berilgan bilim tez yodda qolsa, ba'zilar uchun tushunarsiz bo'ladi. Aqliy tarbiya ham o'qituvchilar tomonidan bollarga o'rgatib borilganda ularda turlicha rivojlanadi. Aqliy tarbiya bu intizomga chambarchas bog'liq bo'lib intizom bor joyda tarbiya rivojlanishi mumkin. Intizom oddiygina maktab formasini kiyish, o'ng qo'l qoidasi, darslarda o'qituvchiga va atrofdagilarga hurmat bilan muomala qilish, qo'l ko'tarib javob

berish kabi kichkinadek tuyulgan talablardan boshladi. Hayotning har bir davri rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra, o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. «Ilk qadam» tayanch dasturida, «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holatda shakllantirish maqsadini qo'llaydi», deyilgan. Buning uchun esa aqliy qobiliyatni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatini o'rgatish zarur. Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehni, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik, bu — donolik. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimizda «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», deyiladi. Aql — keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib, tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog'lanadi. Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Sharq allomalaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning turli sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar. O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilimli bo'lishga chaqirgan. U aql va ilmni ulug'lab: «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir», deb yozgan edi. Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni ikki kategoriyaga bo'ladi:

1. Nazariy aql — borliqdagi umumiy narsalarni idrok etish.
 2. Amaliy aql — buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlar.
- Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chex pedagogi Yan Amos Kamenskiy tomonidan ilgari surilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi.

Shu davrda bola yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganishi lozim, deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga, ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin ekan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida, voqealarning har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda, ko'ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'qish, mehnat, samarali faoliyatlarni jarayonida (rasm chizish, loydan shakllar yasash) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fanida bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar va aqliy tarbiya berishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
2. Bilishga doir ruhiy jarayonni rivojlantirish.
3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyati, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish. Bilishga doir ruhiy jarayon — sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir. Tevarak-atrofnii bilish sezish va idrok etishdan boshlanadi. Ularning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, borliqni bilib olish imkoniyati

shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun uni bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish zarur. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha yuk bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bulami hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolalar tevarakatrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi, voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajrata oladigan bo'lib qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolaning tevarakatrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida

javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yoʻllab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yoʻl qoʻymaydi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bogʻchasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon boʻladi va rivojlanadi. Inson ziyraklik, fahm-farosatlilik, tanqidiy koʻz bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy koʻnikma va malakalarni rivojlantirish, yaʼni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim boʻlmagan belgilarni ajratib koʻrsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridandir. Bu koʻnikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari boʻlib, bolaga bilimlarni muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan, oʻsimliklar va hayvonlar bilan tanishtirish boʻyicha sistemali mashgʻulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim oʻsimliklar yoki hayvonlar toʻgʻrisida maʼlum bir tasawurga ega boʻladilar. Soʻngra bolalardagi aqliy koʻnikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashgʻulotlarni oʻtkazishni rejalashtirishi mumkin: «Paxta oʻsimligini momaqaymoq oʻsimligi bilan taqqoslash», «Qafasdagi ikki xil qushni bir-biriga taqqoslash» didaktik oʻyini va sh.k. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga oʻrgatish zarur. Ilk va bogʻcha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga boʻlgan qiziqish juda tez oʻsadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga boʻlgan har qanday xohishini sezishlari va ragʻbatlantirib borishlari kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).

Эргашева Г. Development of teachers innovative activities //Ученый XXI века. – 2018. – №. 4-3.

Ergasheva G. Личностное отношение-условие учебной и профессиональной деятельности учителя //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.

Ergasheva G. некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

Ergasheva G. Дидактические требования к занятиям математикой в дошкольных учреждениях //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

Baxtiyorovna E. G. Factors that Increase Lesson Effectiveness in Primary Education //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 231-235.

Ergasheva G. B. zamonaviy jamiyatda fan va ta'limning rivojlanishida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 969-974.

Ergasheva G. Дидактические требования к занятиям математикой в дошкольных учреждениях //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

Ergasheva G. B., Tohirova S. Mustaqillik ne'matiga shukrona qilish va uning mustahkamligini shaqlash //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1196-1200.

Izzatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English //Asian journal OF Multidimensional research. – 2021. – т. 10. – №. 5. – с. 318-321.

Khodjayeva d. i., saidova z. t. the origin and justification of the term taxis in linguistics //E-Conference Globe. – 2021. – с. 375-379.

Izzatilloevna K. D., Tolibovna S. Z. Dependent taxis: Semantic features and methods of expression in English //Asian journal of multidimensional research. – 2021. – т. 10. – №. 5. – с. 318-321.

Tolibovna S. Z. Taxis and the grammatical category of temporal reference //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – т. 2. – №. 2. – с. 277-280.

Tolibovna S. Z. Taxis and the grammatical category of temporal reference //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – т. 2. – №. 2. – с. 277-280.

О‘ЗBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — ERKIN, FAROVON VA QUDRATLI YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH KAFOLATI

Alimova Shaxlo Bafayevna,

Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
“Ijtimoiy—iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining erkin, farovon va qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish omillari yangilangan konstitutsiyaning ayrim moddalari asosida tahlil etilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, xalq, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, adolat, qonun.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы Конституции Республики Узбекистан для создания свободного, процветающего и могущественного нового Узбекистана на основе некоторых статей обновленной Конституции.

Ключевые слова: Конституция, народ, законодатель, исполнительная, судебная власть, Олий Мажлис, Кабинет Министров, юстиция, закон.

	KOMPETENTLIGINING RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	
119	<p style="text-align: center;">Nafisa Hamroyeva Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti</p> <p style="text-align: center;">Durdona Hikmatova BuxDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi</p> <p style="text-align: center;">MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQ VA INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING O'RNI</p>	603
120	<p style="text-align: center;">Gulzoda Baxtiyorovna Ergasheva Buxoro davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi</p> <p style="text-align: center;">Ravshanova Sitorabonu Murodillo qizi Buxoro davlat universiteti talabasi</p> <p style="text-align: center;">Maftuna Olimova Buxoro davlat universiteti talabasi</p> <p style="text-align: center;">MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHDA TA'LIMNING YETAKCHI VOSITASI SIFATIDA</p>	607
121	<p style="text-align: center;">Alimova Shaxlo Bafayevna Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Ijtimoiy—iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrası katta o'qituvchisi</p> <p style="text-align: center;">O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — ERKIN, FAROVON VA QUDRATLI YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISH KAFOLATI</p>	614
122	<p style="text-align: center;">D.B.XAMROYEVA Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrası o'qituvchisi</p> <p style="text-align: center;">MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION</p>	624